SANOAT KORXONALARIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARIGA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI.....	836
Xusanova Malohat Mingnorovna	



SANOAT KORXONALARIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARIGA SUN'IIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI

Xusanova Malohat Mingnorovna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti v.b. dotsenti

ORCID: 0009-0000-6042-8584

Annotatsiya: Tadqiqot sanoat korxonalarida qaror qabul qilish jarayonlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish samaradorligini nazariy-amaliy jihatdan tahlil qildi. Global va mintaqaviy darajadagi empirik ma'lumotlar tizimli ravishda o'rganildi, sanoat korxonalarida sun'iy intellekt asosidagi qaror qo'llab-quvvatlash tizimlarining funksional vazifalari, joriy etish imkoniyatlari va amaliy chegaralari aniqlandi. Ilmiy manbalar sharhida sun'iy intellekt texnologiyalarining prognoz asosidagi texnik xizmat, sifat nazorati, ta'minot zanjirini boshqarish hamda ishlab chiqarishni rejalashtirish sohalaridagi samaradorligini ko'rsatuvchi ishonchli natijalar to'plandi va taqqoslama jadval orqali umumlashtirildi. O'zbekiston sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya strategiyasi doirasida sun'iy intellektni joriy qilishning strategik imkoniyatlari taqqoslandi. Olingan natijalar sun'iy intellekt texnologiyalari qaror qabul qilish tezligini, aniqligini va sifatini sezilarli darajada oshirganini tasdiqladi. Tadqiqot asosida korxona boshqaruv amaliyoti uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, qaror qabul qilish, sanoat korxonasi, raqamli transformatsiya, qaror qo'llab-quvvatlash tizimi, prognoz asosidagi texnik xizmat, Industriya 4.0.

Аннотация: Исследование проанализировало эффективность внедрения технологий искусственного интеллекта в процессы принятия управленческих решений на промышленных предприятиях с теоретико-прикладной точки зрения. Автор систематически изучил эмпирические данные глобального и регионального уровня, определил функциональные задачи, возможности внедрения и практические ограничения систем поддержки принятия решений на основе искусственного интеллекта. В обзоре научных источников собраны достоверные результаты, показывающие эффективность технологий искусственного интеллекта в сферах прогнозного технического обслуживания, контроля качества, управления цепочками поставок и планирования производства, которые обобщены в сравнительной таблице. Стратегические возможности внедрения искусственного интеллекта на промышленных предприятиях Узбекистана сопоставлены в рамках стратегии цифровой трансформации. Полученные результаты подтвердили, что технологии искусственного интеллекта существенно повысили скорость, точность и качество принятия решений. На основе исследования разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: искусственный интеллект, принятие решений, промышленное предприятие, цифровая трансформация, система поддержки принятия решений, прогнозное техническое обслуживание, Индустрия 4.0.

Abstract: The study analysed the efficiency of implementing artificial intelligence in decision-making at industrial enterprises from a theoretical-applied perspective. The author systematically examined empirical data at global and regional levels, identified functional tasks, opportunities and limitations of AI-based decision support systems. The review compiled reliable findings demonstrating the efficiency of AI in predictive maintenance, quality control, supply chain management and production planning, summarised in a comparative table. Strategic opportunities for AI adoption at industrial enterprises of Uzbekistan were compared within the digital transformation framework. The obtained results confirmed that AI technologies significantly increased the speed, accuracy and quality of managerial decisions. Practical recommendations were developed for enterprise management, reflecting the sustained potential of AI integration.

Keywords: artificial intelligence, decision-making, industrial enterprise, digital transformation, decision support system, predictive maintenance, Industry 4.0.



KIRISH

Zamonaviy sanoat ishlab chiqarishi tez sur'atlar bilan raqamli transformatsiya bosqichiga o'tmoqda. Industriya 4.0 va shakllanayotgan Industriya 5.0 tamoyillari doirasida korxonalar kiber-fizik tizimlar, katta hajmdagi ma'lumotlar oqimi va avtomatlashtirilgan boshqaruv modellari asosida o'z faoliyatini qayta qurmoqda [1; 4]. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni an'anaviy tajribaga asoslangan yondashuvlardan ma'lumotlar bilan boyitilgan va algoritmik tahlilga tayanadigan yondashuvlarga o'tmoqda. SI texnologiyalari — mashinali o'rganish, chuqur neyron tarmoqlar, tabiiy tilni qayta ishlash va kompyuter ko'rishi — sanoat korxonalarining operatsion qarorlari sifati, tezligi hamda izchilligini yangi darajaga ko'taruvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda [2; 5]. PwC global baholashiga ko'ra, SI 2030-yilga qadar jahon yalpi ichki mahsulotiga taxminan 15,7 trln AQSh dollari hissa qo'shishi mumkin. Miqdorning sezilarli ulushi aynan sanoat mehnat unumdorligi oshishi hisobiga shakllanadi [10].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son¹ qarori bilan tasdiqlangan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" mamlakat sanoatida SI yo'nalishining milliy ustuvorligini qonuniy darajada mustahkamladi [12]. Ilmiy nuqtayi nazardan AI-asoslangan qaror qo'llab-quvvatlash tizimlarining (Decision Support Systems, DSS) sanoat korxonalarida amal qilish mantig'i, samaradorlikni baholash metodologiyasi hamda rivojlanayotgan iqtisodiyotlar sharoitida joriy etishning iqtisodiy asoslangan modellari yetarli darajada o'rganilmagan. Ilmiy ishning maqsadi sanoat korxonalarida qaror qabul qilish jarayonlariga SI texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy-tashkiliy samaradorligini nazariy jihatdan umumlashtirish hamda baholash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat. Maqsadga erishish SI-DSS tizimlarining funksional xaritasini tuzish, global hamda mintaqaviy empirik ma'lumotlar asosida samaradorlik ko'rsatkichlarini qiyosiy baholash va O'zbekiston sanoati uchun amaliy tavsiyalarni shakllantirishni taqozo qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellektning sanoat qarorlarini qo'llab-quvvatlashdagi roli bo'yicha xalqaro tadqiqotlar uch yirik guruhga ajraladi: konseptual-nazariy, algoritmik-texnik va tashkiliy-iqtisodiy. Konseptual-nazariy yo'nalishning asosiy vakillari Industriya 4.0 paradigmasini tahlil qilishdan kelib chiqib, sun'iy intellektning korxonaning "asab tizimi" sifatida izohlaydilar. Plathottam bilan hamkasblari o'tkazgan tizimli sharh SI va mashinali o'rganishning ishlab chiqarishda xarajatlarni kamaytirish, barqarorlikni oshirish hamda mahsulot sifatini ta'minlashning samaradorligi isbotlangan vositalari bo'lib xizmat qilishini asoslab berdi; mualliflar qora quti muammosi va tashkiliy ishonchsizlik operatsion qabul qilishning asosiy to'sig'i bo'lib qolayotganini ham qayd etgan [1; 6]. Industriya 4.0 kontekstida yetilganlik modellarini boyitishga bag'ishlangan zamonaviy izlanishlar AI qobiliyatlarining "kengaytirilgan CCMS2.0e" yetilganlik modelida aks ettirilishini va raqamli egizaklar (digital twins) bilan chambarchas bog'liq ekanligini isbotlagan [4].

Algoritmik-texnik yo'nalishga mansub izlanishlar zamonaviy sanoat qarorlarini neyron tarmoqlar, chuqur o'rganish va katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili orqali optimallashtiradigan yondashuvlarni muhokama qiladi. Scientific Reports jurnalida chop etilgan 100 ta korxona kesimidagi aralash usulli tadqiqot AI joriy etilgan korxonalarda real vaqtdagi rejalashtirish, kompyuter ko'rishiga asoslangan sifat nazorati va ta'minot zanjirini optimallashtirish orqali mahsuldorlik hamda ish vaqtidan foydalanish koeffitsiyentining ishonarli oshganini qayd etgan [2]. SloT texnologiyasi real vaqt rejimida ishlaydigan tahlil modullarini sensorlar bilan uyg'unlashtirib, qoldiq xizmat muddatini (Remaining Useful Life) aniqlashda yuqori darajaga erishish imkoniyati berganligi ko'rsatilgan [8]. Tushuntirib bo'ladigan sun'iy intellekt (Explainable AI, XAI) yo'nalishi mustaqil mavzuga aylandi: Taylor & Francis jurnalidagi sharh XAI sanoat muhitida ishonchni va interpretativlikni ta'minlovchi asosiy mexanizm bo'lishini qayd etgan, biroq standartlashtirilgan baholash metodikasining yetishmasligi uning qo'llanilishini cheklayotganini ko'rsatgan [3; 15]. Prognoz asosidagi texnik xizmat (Predictive Maintenance, PdM) yo'nalishida MDPI Engineering Proceedings tizimli sharhi PdM yondashuvlarining sof statistik usullardan gibrid SI-asoslangan modellargacha evolyutsiyasini izohlagan; yer osti konlarida sinovdan o'tkazilgan SI-asoslangan PdM tizimi texnik xizmat xarajatlarini 8 foizga kamaytirgani va uskunalar mavjudligini 10 foizga oshirgani empirik natija sifatida qayd etilgan [5; 7].

Tashkiliy-iqtisodiy yo'nalish global konsalting kompaniyalarining analitik bazasiga tayanadi. McKinsey Global Survey 2024 ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha kompaniyalarning 72 foizi kamida bitta faoliyat sohasida SI dan foydalanadi. Generativ SI joriy etilishi bir yil ichida 33 foizdan 65 foizgacha oshgan [9]. PwC "Sizing the Prize" sharhi SI global iqtisodiyotga 2030-yilgacha 15,7 trln AQSh dollari hissa qo'shishi mumkinligini, summaning 6,6 trln dollari mehnat unumdorligining oshishi hisobidan shakllanishini izohlagan [10]. NAM hisoboti kimyoviy, mashinasozlik va oziq-ovqat tarmoqlarida SI joriy etilishining operatsion aniqlik

1 <https://lex.uz/docs/-7158604>



hamda xavfsizlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sirini tajribaviy misollarda ko'rsatgan [11]. Mintaqaviy darajada Oxford Insights tahlili O'zbekistonni raqamli hubga aylanish yo'lida ekanligini, SIning mamlakat iqtisodiyotiga taxminan 1,1 mlrd AQSh dollari hissa qo'shishi kutilayotganini qayd etgan [13]. Adabiyotlar sharhidan kelib chiqadigan umumiy xulosa SIning sanoat qarorlarini qo'llab-quvvatlashning ko'p bosqichli texnik-iqtisodiy arxitekturasiga aylanganini, biroq joriy etish samaradorligini yagona metodologiya bilan baholash masalasi ochiq qolayotganini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Nazariy umumlashtirishning metodologik asosini sifat tahlili, tizimli adabiyotlar sharhi hamda qiyosiy baholash usullari tashkil etib, tadqiqot jarayoni ikki bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda tadqiqot uchun manbalar bazasi shakllantirilib, ular muayyan mezonlar asosida saralandi. Jumladan, 2017–2026-yillar oralig'ida chop etilgan va ekspertlar tomonidan taqriz qilinadigan nufuzli ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar tanlab olindi. Shuningdek, global konsalting kompaniyalari hisobotlarining rasmiy veb-saytlarida joylashtirilgan birlamchi materiallari, davlat organlarining rasmiy hujjatlari hamda veb-portallaridagi ma'lumotlar ham tadqiqotga jalb etildi. Har bir manba sun'iy intellektning sanoat qarorlariga ta'siri, uning funksional qo'llanish yo'nalishlari, empirik dalillar bilan asoslanganligi va joriy etish jarayonida yuzaga keladigan cheklov omillari nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar maxsus kodlash jadvali asosida to'rtta asosiy o'lcham — texnologik qamrov, funksional qo'llanish sohasi, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari hamda tashkiliy shartlar bo'yicha tizimlashtirildi.

Ikkinchi bosqichda qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Natijalarning asossiz umumlashtirilishining oldini olish maqsadida turli manbalardan olingan raqamli ko'rsatkichlar yagona jadvalga jamlanib, har bir ko'rsatkich tegishli manbasi bilan birgalikda keltirildi. Qiyosiy baholash jarayonida nisbiy ko'rsatkichlardan (foizli o'zgarishlar va nisbiy samaradorlik darajasi) foydalanishga ustuvor ahamiyat berildi, chunki ular turli korxonalar va tarmoqlar kesimida natijalarni to'g'ri taqqoslash imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan metodologik yondashuv nazariy xarakterga ega bo'lib, u bevosita empirik hisob-kitoblarni amalga oshirishdan ko'ra, mavjud empirik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish va sintez qilishga qaratilgan. Mazkur yondashuv sanoat korxonalarida qaror qabul qilish jarayonining mantiqiy asoslarini tizimli ravishda yoritishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonalarida SI texnologiyalarining qaror qabul qilishga ta'siri to'rtta asosiy oqim bo'yicha kuzatiladi. Jumladan, prognostik texnik xizmat, sifat nazorati va kompyuter ko'rishi, ta'minot zanjiri hamda ishlab chiqarishni rejalashtirish oqimlari bo'yicha kuzatildi. Sanoatning umumiy darajasidagi iqtisodiy samaradorlik har bir yo'nalish bo'yicha verifikatsiya qilingan empirik natijalarni taqdim etadi va 1-jadvalda ushbu natijalar umumlashtirildi.

Prognostik texnik xizmat bo'yicha empirik sinovlar SI modellari uskunalar nosozligini oldindan aniqlash, rejalashtirilmagan to'xtalishlarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatini berganini ko'rsatgan. Yer osti konlarida sinovdan o'tkazilgan SIga asoslangan PdM tizimi real vaqt rejimidagi sensor ma'lumotlari asosida uskuna mavjudligini 10 foizga oshirgani va texnik xizmat xarajatlarini 8 foizga kamaytirgani ishonchli natija sifatida qayd etish lozim [7]. Turli sanoat sharoitlaridagi tizimli sharhlar SI asosidagi PdM tizimlari ishlab chiqarish uzilishlarini 30–50 foizgacha, texnik xizmat xarajatlarini 10–40 foizgacha kamaytirishi mumkinligini tasdiqlaydi [1; 8].

Sifat nazorati sohasida kompyuter ko'rishi va chuqur o'rganish modellari inson inspektorlariga nisbatan yuqori darajadagi takrorlanadigan aniqlik hamda tezkorlikni ta'minlaydi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarida nuqsonlarni aniqlash samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Scientific Reports jurnalida chop etilgan, 100 nafar sanoat korxonasi menejeri ishtirok etgan so'rov natijalariga ko'ra, sun'iy intellektga asoslangan sifat nazorati tizimlari joriy etilgan korxonalarda yaroqsiz mahsulot ulushi sezilarli darajada kamaygani aniqlangan. Shuningdek, real vaqt rejimida anomaliyalarni aniqlash imkoniyati boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligini oshirishga xizmat qilgani qayd etilgan [2].

Bundan tashqari, SIoT (Sun'iy intellekt narsalar interneti) platformalari orqali sensorlardan olinadigan ma'lumotlar modellar yordamida avtomatik ravishda qayta ishlanib, faqat muhim va ustuvor qarorlar inson operatorlariga yetkaziladi. Bu esa inson resurslaridan samarali foydalanish va operatsion yuklamani kamaytirishga xizmat qiladi [8].

Ta'minot zanjiri va ishlab chiqarishni rejalashtirish jarayonlarida sun'iy intellektga asoslangan tizimlar talab prognozlash, inventar darajasini optimallashtirish, logistika marshrutlarini shakllantirish hamda yetkazib beruvchilarni tanlash bo'yicha qarorlarni ma'lumotlar bilan boyitadi.

ScienceDirect platformasida e'lon qilingan tizimli sharh natijalariga ko'ra, SI-DSS (sun'iy intellektga



asoslangan qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari) yechimlari ta'minot zanjirini optimallashtirish, energiya menejmenti va ishlab chiqarishni rejalashtirishda operatsion ishonchlilik hamda tezkorlikni oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, tadqiqotda ma'lumotlar sifati pastligi va turli tizimlar o'rtasidagi integratsiya muammolari ushbu texnologiyalarni joriy etishda asosiy cheklov omillar sifatida qayd etilgan [14].

Sanoatning umumiy darajasida global konsalting kompaniyalarining empirik kuzatuvlari tasdiqlovchi manzarani taqdim etadi. McKinsey Global Survey 2024 ma'lumotlariga ko'ra, tashkilotlarning 72 foizi Sldan, 65 foizi generativ Sldan kamida bitta biznes funksiyasida foydalanadi. Mahsulot ishlab chiqish va ta'minot funksiyalarida SI joriy etilgach, 1–4 oylik muddat ichida dastlabki samarali natijalar qayd etilgan [9]. PwC bahosiga ko'ra, mehnat unumdorligining o'sishi 2030-yilgacha global yalpi ichki mahsulotga 6,6 trln AQSh dollari miqdorida hissa qo'shishi kutiladi [10]. NAM hisoboti kimyoviy reaktorlarga o'rnatilgan SI ogohlantiruvchi tizimi operatorlarning jarayon parametrlarini optimal vaqtda sozlashi hisobiga ishonchlilik bilan sifatning barqarorlashishiga olib kelganini empirik misolda ko'rsatgan [11]. Keltirilgan natijalar funksional yo'nalishlar bo'yicha 1-jadvalda umumlashtirildi (1-jadval).


1-jadval.

Sanoatda sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy yo'nalishlar bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari²

No	Funksional yo'nalish	Qo'llaniladigan AI texnologiyasi	Qayd etilgan asosiy samaradorlik ko'rsatkichi
1	Prognostik texnik xizmat	Mashinali o'rganish, AIoT	Rejalashtirilmagan to'xtalishlar 30-50 foizga kamaygan; texnik xizmat xarajatlari 10-40 foizga kamaygan
2	Uskunalar mavjudligi (konchilik pilot loyihasi)	Mashinali o'rganish, IoT sensorlar	Uskuna mavjudligi 10 foizga oshgan; texnik xizmat xarajatlari 8 foizga kamaygan
3	Sifat nazorati	Kompyuter ko'rishi, chuqur o'rganish	Aniqlashtirish aniqligi oshgan; yaroqsiz mahsulot ulushi kamaygan
4	Ta'minot zanjiri va rejalashtirish	AI-DSS, optimallashtirish algoritmlari	Operatsion ishonchlilik va javob tezligi yaxshilangan
5	Korxona darajasidagi joriy etilish	Generativ va klassik AI	2024-yilda tashkilotlarning 72 foizi Aldan, 65 foizi generativ Aldan foydalangan
6	Global iqtisodiy ta'sir	Turli yo'nalishdagi AI	2030-yilgacha global YalMga 15,7 trln. AQSh dollari hissa kutilmoqda (shundan 6,6 trln. - mehnat unumdorligi hisobidan)
7	Mintaqaviy daraja (O'zbekiston)	Milliy AI strategiyasi	AI iqtisodiyotga taxminan 1,1 mlrd. AQSh dollari hissa qo'shishi prognozlashtirilmoqda

1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar bir xil miqyosda emas — turli tadqiqotlar turli kontekstni o'lchaydi; ammo barcha natijalar bir yo'nalishga, AI joriy etilgan korxonalarda qaror sifati hamda iqtisodiy samaradorlik yuqorilashi tomoniga ishora qiladi. Funksional tahlilni konseptual darajada umumlashtirish maqsadida Slga asoslangan sanoat qaror qo'llab-quvvatlash tizimining to'rt bosqichli sxemasi tuzildi: ma'lumot yig'ish (IoT sensorlar, korxonaning axborot tizimlari), ma'lumotni qayta ishlash (normalizatsiya, filtratsiya, saqlash), modelga asoslangan tahlil (mashinali o'rganish, chuqur o'rganish, XAI moduli) hamda qaror interfeysi (menejerga tavsiya, avtomatik boshqaruv signallari). Konseptual sxema 1-rasmda taqdim etildi.

2 Muallif tomonidan manbalar asosida ishlab chiqildi



1-rasm. Sanoat korxonasining sun'iy intellektga asoslangan qaror qo'llab-quvvatlash tizimi arxitekturası³

Tahlil natijalaridan olingan asosiy nazariy xulosalar uch qoidada jamlandi. Birinchidan, sun'iy intellekt sanoat qarorini to'liq almashtirmaydi, balki ma'lumot asosidagi tavsiyalar bilan boyitadi; qaror qabul qiluvchining roli strategik o'lchamga siljiydi [1; 11; 15]. Ikkinchidan, samaradorlik faqat texnologiyaga emas, ma'lumotlar sifatiga, tashkiliy tayyorlikka va kadrlarning malakasiga bog'liq; keltirilgan omillar birgalikda "SI-qabul qilish to'sig'i" sifatida tasvirlanadi [7; 14]. Uchinchidan, sanoatda SI joriy etishning ikki darajali modeli — pilot loyiha va keng miqyosli qo'llanma — empirik manbalarda bir xilda afzal yondashuv sifatida tavsiya etiladi [8; 9; 11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nazariy umumlashtirish sanoat korxonalarida qaror qabul qilish jarayonlariga AI texnologiyalarini joriy etish ijobiy samara berish xususiyati bilan ajralib turishini tasdiqlaydi. Empirik ma'lumotlar AI vositalarining uskunalar ishonchiligi, sifat doimiyligi, ta'minot zanjiri egiluvchanligi va umumiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini yuqori darajaga olib chiqayotganini bir ovozdan ko'rsatadi; global (PwC, McKinsey) hamda mintaqaviy (O'zbekistonning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi) dinamika belgilangan yo'nalishning barqaror o'sish maydoni ekanligini isbotlaydi [9; 10; 12]. Sanoat korxonalari uchun amaliy tavsiyalar quyidagi yo'nalishlarda shakllantirildi.

Birinchidan, SIn joriy etishdan oldin korxona raqamli yetilganlik auditidan o'tishi maqsadga muvofiq: mavjud IT infratuzilmasi, ma'lumotlar arxitekturası va kadrlar salohiyati joriy etish strategiyasiga moslashtirilishi lozim; xalqaro tajriba bosqichni tashlab yuborish iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir qilishini ko'rsatgan [4; 7]. Ikkinchidan, joriy etish pilot loyiha shaklida boshlanishi, natijalar kuzatilganidan so'ng kengaytirilishi tavsiya etiladi; prognostik texnik xizmat va sifat nazorati kabi o'lchanadigan samara beradigan sohalar pilot bosqich uchun eng mos yo'nalish bo'lib qoladi [7; 8; 11].

Uchinchidan, tushuntirib bo'ladigan SI (XAI) modullarining integratsiyasi boshqaruv qarorlarining ishonchini oshirish va menejer mas'uliyatini saqlashning kalit mexanizmi sifatida ishlatilishi lozim [3; 15]. To'rtinchidan, kadrlar tayyorlashga bag'ishlangan doimiy ta'lim dasturlari hamda mintaqaviy qo'llab-quvvatlash ekotizimi — akademik markazlar, davlat-xususiy sheriklik modellari, xalqaro hamkorlik loyihalari — korxonaning SI bilan bog'liq raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy institutsional manba sifatida ko'rilishi kerak; milliy AI strategiyasi bu yo'nalishdagi me'yorlarni aniq belgilaydi va joriy etish xarajatlarini pasaytirib, o'zlashtirish davrini qisqartiradi [12; 13].

Keyingi ilmiy izlanishlar uchun ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagilar belgilandi: O'zbekiston korxonalari misolida SI joriy etishning iqtisodiy samaradorligini empirik baholash; mintaqaviy shartlarni hisobga olgan XAI

3 Muallif tomonidan manbalar asosida ishlab chiqildi



modellari arxitekturasini ishlab chiqish; sanoatning turli tarmoqlari bo'yicha yo'naltirilgan metodologiyalarni shakllantirish. Sun'iy intellekt korxonaning intellektual infratuzilmasiga aylandi; uni to'g'ri joriy etish barqaror rivojlanishning strategik resursi sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Plathottam S.J., Rzonca A., Lakhnori R., Iloeje C.O. A review of artificial intelligence applications in manufacturing operations // Journal of Advanced Manufacturing and Processing. 2023. Vol. 5, № 3. e10159. URL: <https://aiche.onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1002/amp2.10159>
2. Leveraging artificial intelligence for smart production management in industry 4.0 // Scientific Reports. 2025. URL: <https://www.nature.com/articles/s41598-025-25413-6>
3. A review of explainable artificial intelligence in smart manufacturing // International Journal of Production Research. 2025. URL: <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/00207543.2025.2513574>
4. Artificial intelligence enriched industry 4.0 readiness in manufacturing: the extended CCMS2.0e maturity model // Production & Manufacturing Research. 2024. URL: <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/21693277.2024.2357683>
5. Arinez J.F., Chang Q., Gao R.X., Xu C., Zhang J. Artificial Intelligence in Advanced Manufacturing: Current Status and Future Outlook // ASME Journal of Manufacturing Science and Engineering. 2020. Vol. 142, № 11. 110804. URL: <https://asmedigitalcollection.asme.org/manufacturingscience/article/142/11/110804/1085487>
6. Li B.-H., Hou B.-C., Yu W.-T., Lu X.-B., Yang C.-W. Applications of artificial intelligence in intelligent manufacturing: a review // Frontiers of Information Technology & Electronic Engineering. 2017. Vol. 18. P. 86-96. URL: <https://link.springer.com/article/10.1631/FITEE.1601885>
7. Predictive Maintenance Approaches: A Systematic Literature Review // Engineering Proceedings (MDPI). 2025. Vol. 112, № 1. URL: <https://www.mdpi.com/2673-4591/112/1/70>
8. Artificial Intelligence of Things for Next-Generation Predictive Maintenance // Sensors (MDPI). 2025. Vol. 25, № 24. 7636. URL: <https://www.mdpi.com/1424-8220/25/24/7636>
9. The state of AI in early 2024: Gen AI adoption spikes and starts to generate value // McKinsey & Company. 2024. URL: <https://www.mckinsey.com/capabilities/quantumblack/our-insights/the-state-of-ai>
10. PwC's Global Artificial Intelligence Study: Sizing the Prize // PwC. URL: <https://www.pwc.com/gx/en/issues/artificial-intelligence/publications/artificial-intelligence-study.html>
11. How Manufacturers Are Using Artificial Intelligence: White Paper // National Association of Manufacturers (NAM). 2024. URL: <https://nam.org/wp-content/uploads/2024/05/NAM-AI-Whitepaper-2024-1.pdf>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/7158604>
13. Harnessing AI for development: Uzbekistan's progress towards becoming a regional IT hub // Oxford Insights. 2025. URL: <https://oxfordinsights.com/insights/harnessing-ai-for-development-uzbekistans-progress-towards-becoming-a-regional-it-hub/>
14. AI-based decision support systems in Industry 4.0, a review // Journal of Industrial Information Integration (ScienceDirect). 2024. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2949948824000374>
15. Dogan A., Birant D. AI for Decision Support: Balancing Accuracy, Transparency, and Trust Across Sectors // Information (MDPI). 2024. Vol. 15, № 11. 725. URL: <https://www.mdpi.com/2078-2489/15/11/725>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>